

«29» may 2025-yildagi 1 / 2 -sonli

**QK MCHJ MMT «UNA MOLIYA»**

**Boshqaruv Raisi qarori bilan**

«TASDIQLANDI»



**QK MCHJ MMT «UNA MOLIYA» da MIKROQARZ BERISHNING UMUMIY QOIDALARI  
TO‘G‘RISIDA NIZOM.**

## **MUNDARIJA:**

1. Atama va ta'riflar,
2. Umumiy qoidalar,
3. Mikroqarz olish uchun qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar, hujjatlar va ma'lumotlarni ko'rib chiqish muddatlari,
4. Mikroqarz turlari, ularning miqdori va qaytarish muddatlari,
5. Foiz stavkalari,
6. Mikroqarz berish usullari,
7. Yakuniy qoidalar.

## 1. ATAMA VA TA'RIFLAR

**1.1. QARZ BERUVCHI** - Qo'shma korxona Mas'uliyati cheklangan jamiyat "UNA MOLIIYA" mikromoliya tashkiloti, o'z faoliyatini 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli hisob raqamiga asosan amalga oshiradi.

**1.2. QARZ OLUVCHI** - mikroqarz olish maqsadida Qarz beruvchiga murojaat qilgan, mikroqarz olayotgan yoki olgan 18 yoshga to'lgan, to'la muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

**1.3. MIKROQARZ (shuningdek, QARZ)** - Qarz beruvchi tomonidan Qarz oluvchiga Qarz shartnomasida nazarda tutilgan shartlar asosida 100 000 000 (yuz million) so'mdan oshmaydigan miqdorda beriladigan pul mablag'lari.

**1.4. QARZ BERISHNING UMUMIY SHARTLARI** - O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq ko'p marta qo'llash maqsadida Qarz beruvchi tomonidan bir tomonlama tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, Qarz shartnomasining umumiy shartlarini o'z ichiga olgan hujjat.

**1.5. QARZ BERISHNING INDIVIDUAL SHARTLARI** - O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq qarz miqdori, uni berish va qaytarish muddatlari, foiz stavkasi hamda boshqa shartlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qarz shartnomasining yakka tartibdagi shartlari.

**1.6. QARZ SHARTNOMASI** - Qarz oluvchi va Qarz beruvchi o'rtasida tuziladigan qarz shartnomasi. Shartnoma Umumiy shartlar va Qarz oluvchi imzolash orqali qabul qiladigan Yakka tartibdagi shartlardan iborat bo'ladi.

**1.7. ARIZA** - Qarz oluvchining ushbu Nizomda, shuningdek Qarz berishning umumiy shartlari va Qarz berishning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlarda mikroqarz olish uchun Qarz beruvchiga Sayt orqali elektron murojaati bo'lib, unda Qarz oluvchi to'g'risida Qarz beruvchiga ushbu Qarz oluvchi bilan Qarz shartnomasini tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mavjud.

**1.8. SAYT** - Qarz beruvchining Internet tarmog'idagi \_\_\_\_\_ manzilida joylashgan rasmiy sayti.

**1.9. KREDIT JARAYONI** - Qarz oluvchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va/yoki ma'lumotlar, shuningdek Qarz beruvchining ichki ma'lumotlari va tashqi manbalar asosida Qarz beruvchi tomonidan qo'llaniladigan Qarz oluvchilarni baholash tizimi.

**1.10. QARZ BERUVCHINING KREDIT SIYOSATI** - mikroqarzlarni berishda yuzaga keladigan xatarlarni boshqarish uchun Qarz beruvchi rahbariyati tomonidan qabul qilingan yondashuvlar va usullarni belgilovchi hamda Qarz beruvchining rahbariyati va xodimlarini kredit portfelini samarali boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjat.

## 2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi, «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliya faoliyati to'g'risida»gi qonunlari hamda «Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning moliyaviy xizmatlar iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirishdagi minimal talablar to'g'risida»gi va «Jismoniy shaxs qarz oluvchilarning qarz yukini tartibga solish to'g'risida»gi Nizomlar talablari asosida ishlab chiqilgan.

2.2. Ushbu Nizom mikromoliya tashkiloti tomonidan qarz oluvchilarga mikroqarz berish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha rahbariyat tomonidan ko'riladigan choralar va usullarni belgilaydi hamda mikromoliya tashkilotining kredit portfelini samarali boshqarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, mikromoliya tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan kredit faoliyatining maqsadlari, tamoyillari, yo'nalishlari va usullarini belgilaydi. Qarz oluvchilarga mikroqarz berish tartibi va shartlarini aniqlaydi.

2.3. Ushbu Nizomda mikromoliya tashkiloti tushunchasi quyidagini anglatadi – Qo'shma Korxona Mas'uliyati Cheklangan Jamiyat shaklidagi mikromoliya tashkiloti «UNA MOLIIYA», STIR: 311431122, joylashgan manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sharaf Rashidov mahallasi, Amir Temur prospekti, 4-uy, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki reestrda mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ro'yxatiga kiritilganligi to'g'risidagi yozuv raqami - \_\_\_\_\_ (ro'yxatdan o'tkazish raqami ko'rsatilsin).

### **3. MIKROQARZ OLISH UCHUN QARZ OLUVCHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR, MIKROQARZ OLISH UCHUN TAQDIM ETILGAN HUJJATLAR VA MA'LUMOTLARNI KO'RIB CHIQISH MUDDATLARI**

3.1. Mikroqarz berish jarayoni potensial qarz oluvchini Qarz beruvchining Veb-saytida ro'yxatdan o'tkazish, qarz oluvchi tomonidan mikroqarz berish uchun zarur barcha ma'lumotlarni taqdim etish, shu jumladan, Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish siyosatiga rozilik bildirish, Mikroqarz berishning umumiy qoidalarini to'g'risidagi ushbu Nizom hamda umumiy va individual qarz shartlariga rozi bo'lish va qarz olish uchun Ariza tuzish orqali boshlanadi. Qarz shartnomasini tuzish uchun qarz oluvchi Veb-saytdan foydalanish orqali ro'yxatdan o'tadi va elektron shaklda Qarz beruvchiga Ariza yuboradi, unda qarz miqdori va uni olish muddatini belgilaydi.

3.2. Qarz beruvchining veb-saytida ariza topshirilayotganda, Qarz oluvchi mikro kredit tashkilotiga quyidagi ma'lumot va ma'lumotnomalarni taqdim etadi:

- Qarz oluvchining telefon raqami,
- Qarz oluvchining amaldagi yashash joyi manzili,
- Qarz oluvchining bandlik turi va ish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar,
- Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar,
- Qarz oluvchining kontakt shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning F.I.O. va telefon

raqamlari ko'rsatilgan holda;

- Qarz oluvchining bank kartasi ma'lumotlari.

Qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar va axborotlar ro'yxati Qarz beruvchi tomonidan bir tomonlama tartibda, Qarz beruvchining saytida Buyurtmani rasmiylashtirish jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin.

3.3. Qarz oluvchi Ariza taqdim etish jarayonida Qarz beruvchining so'roviga javoban taqdim etgan ma'lumotlar tuziladigan Qarz shartnomasi shartlariga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ogohlantirilgan.

3.4. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini har tomonlama baholash, uning qarz mablag'larini boshqarish va mikroqarzni to'lash imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek mikroqarz berishni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida, Qarz beruvchi o'zining Kredit siyosatiga muvofiq Qarz oluvchining belgilangan talablarga javob berishini tekshiradi.

3.5. Qarz beruvchining saytida Buyurtmani rasmiylashtirish jarayonida Qarz oluvchi raqamli identifikatsiyalash jarayonidan o'tadi. Mikromoliya tashkiloti tomonidan Qarz oluvchini raqamli identifikatsiyalashda real vaqt rejimida mikromoliya tashkilotining axborot tizimlari tomonidan Qarz oluvchining shaxsini tekshirish va identifikatsiyalash amalga oshiriladi

Mikromoliyaviy tashkilotning axborot tizimlari Qarz oluvchini real vaqt rejimida raqamli identifikatsiya qilish jarayonida, axborot tizimlari:

- a) real vaqt rejimida shaxsni tasdiqlovchi hujjat (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi) seriyasi va raqamini yoki jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini va tug'ilgan sanasini yoxud ushbu ma'lumotlarning barchasini oladi;
- b) markaziy ma'lumotlar bazasiga so'rov yuboradi va Qarz oluvchining quyidagi shaxsiy ma'lumotlarini oladi;
- c) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR);
- d) biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasining berilgan sanasi, amal qilish muddati va berilgan joyi;
- e) davlat tilidagi familiyasi, ismi, otasining ismi;
- f) jinsi, tug'ilgan mamlakati, tug'ilgan joyi, millati, fuqaroligi va doimiy yoki vaqtincha yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- g) Qarz oluvchi bilan bog'lanish uchun foydalaniladigan mobil telefon raqamini aynan shu Qarz oluvchi tomonidan ushbu raqamdan foydalanilayotganligini aniqlash imkonini beruvchi usul yordamida tekshiradi (mobil telefonga qo'ng'iroq qilish, SMS-xabarlar yuborish);
- h) ichki nazorat qoidalariga muvofiq olingan ma'lumotlarni Ro'yxat bilan avtomatik ravishda (inson omilisiz) taqqoslaydi.

3.6 Quyidagi hollarda qarz beruvchiga mikroqarzlar berish taqiqlanadi:

- agar Qarz oluvchining qarz yuki ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan cheklangan qiymatlardan oshsa;
- boshqa moliya tashkilotlari oldidagi muddati o'tgan majburiyatlar mavjud bo'lganda;

- O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari tomonidan shakllantiriladigan Terrorchilik faoliyatida yoxud ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatida Qarz oluvchi aniqlanganda.

3.7 Qarz shartnomasi Qarz beruvchi va Qarz oluvchi tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

#### **4. MIKROQARZ TURLARI, ULARNING MIQDORI VA QAYTARISH MUDDATLARI**

4.1. Qarz beruvchi mikrokreditlarning quyidagi turlarini taqdim etadi:

Mikroqarz - qarz oluvchi - jismoniy shaxsga to'lovlik, muddatlilik va qaytarishlilik shartlari asosida 100 000 000 so'mdan oshmaydigan miqdorda beriladigan kredit.

4.2 Mikroqarzni qaytarish muddatlari har bir aniq holatda alohida belgilanadi va Qarz oluvchi va Qarz beruvchi o'rtasida tuzilgan Qarz shartnomasida ko'rsatiladi.

#### **5. FOIZ STAVKALARI**

5.1. Mikroqarz bo'yicha foiz stavkasi Qarz beruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilanadi.

#### **6. MIKROQARZ BERISH VA UNI QAYTARISH USULLARI**

6.1. Qarz mablag'lari naqd pulsiz tartibda bank kartasiga pul o'tkazish yo'li bilan beriladi, uni Qarz oluvchi Qarz beruvchining saytida Buyurtmani rasmiylashtirishda ko'rsatgan va Qarz shartnomasini imzolashda amalda ega bo'lishi kerak.

6.2. Qarzlari bo'yicha barcha to'lovlar, shu jumladan hisoblangan foizlar, asosiy qarz summasi, jarima sanksiyalari pul o'tkazmalari shaklida, shu jumladan bank kartalari, elektron Internet-to'lov vositalari va boshqa qonuniy to'lov vositalari orqali amalga oshiriladi.

6.3. Mikroqarzni qaytarishning Qarz shartnomasida belgilangan shartlari buzilgan taqdirda Qarz oluvchiga nisbatan Qarz shartnomasida nazarda tutilgan jarima sanksiyalari qo'llaniladi.

6.4. Mikroqarz bo'yicha to'lovlar Mikroqarzni qaytarish jadvali asosida, Qarz shartnomasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.5. Qarz oluvchi Qarz shartnomasi tuzilgandan so'ng, pul mablag'larini olgunga qadar bo'lgan davrda mikroqarzdin voz kechish huquqiga ega. Pul mablag'lari Qarz oluvchining bank kartasiga o'tkazilgach, Qarz beruvchining qarz berish majburiyatlari bajarilgan hisoblanadi va Qarz oluvchi qarz summasini hamda qarz summasidan amalda foydalanilgan muddat uchun hisoblangan foizlarni qisman yoki to'liq muddatidan oldin qaytarish huquqiga ega bo'ladi. Qarz summasidan foydalanganlik uchun foizlar qarz summasi Qarz oluvchining hisobvarag'iga o'tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi.

#### **7. YAKUNIY QOIDALAR**

7.1. Ushbu Nizom mikromoliya tashkiloti boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab kuchga kiradi.

7.2. Ushbu Nizomga o'zgartirishlar QK MCHJ MMT"UNA MOLIYA" Boshqaruvi raisi qarori bilan kiritiladi.

Протруновано, протруновано  
и ескрено печатно на 6 лустах  
Пресецач: Тарсов А.

